

ASSESSING SPEAKING SKILLS: TIL O'RGANUVCHILAR NUTQINI BAHOLASH TAMOYILLARI VA AMALIY YONDASHUVLAR

Ochilova Rayxona Jo'rabek qizi

Termiz davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xotirijiy til
(ingliz tili) ta'lim yo'nalishi 4-kurs 401-guruh talabasi.
ochilovarayxona88@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577823>

ANNOTATION: This research paper examines the theoretical and practical aspects of assessing speaking skills in the context of modern foreign language teaching. Speaking is recognized as a core component of communicative competence, and its accurate assessment plays a significant role in evaluating learners' linguistic development. The study discusses the foundations of speaking assessment, including fluency, lexical resource, grammatical accuracy, pronunciation, and interactive communication. Various assessment models such as formative and summative assessment, CEFR-based criteria, and analytic rubrics are analyzed in depth. Moreover, the paper explores diverse test formats used in international examinations (IELTS, TOEFL, Cambridge) and highlights the advantages of communicative and technology-enhanced assessment approaches. The findings emphasize that reliable and valid assessment of speaking skills requires standardized criteria, authentic tasks, and integration of assessment into the learning process. The study concludes that systematic evaluation of oral proficiency not only identifies learners' current abilities but also guides effective teaching strategies and supports continuous language improvement.

KEYWORDS: Speaking assessment; communicative competence; CEFR; oral proficiency; rubric; fluency; pronunciation; lexical resource; formative assessment; summative assessment; speaking tests; role-play; interview test; IELTS; TOEFL; Cambridge exams; language evaluation; speaking skills.

KIRISH: Globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot vositasiga aylangan bir davrda, og'zaki nutq ko'nikmasi til o'rganuvchilar uchun eng muhim kompetensiyalardan biri bo'lib qolmoqda. Til o'rgatish metodikasi sohasida o'quvchilarning gapirish ko'nikmasini shakllantirish bilan bir qatorda, uni aniq va ishonchli baholash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki baholash jarayoni nafaqat o'quvchining mavjud darajasini aniqlaydi, balki kelgusi o'quv jarayonini rejalashtirish, samarali o'qitish strategiyalarini tanlash va o'quvchining o'sish dinamikasini kuzatishda muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM: Og'zaki nutqni baholash - ko'p komponentli, murakkab jarayon bo'lib, unda talaffuz, ravonlik, grammatik aniqlik, leksik boylik, interaktiv muloqot ko'nikmalari va pragmatik kompetensiya kabi jihatlar inobatga olinadi. Zamonaviy til o'qitish nazariyasida baholashning turli modellari (formatif baholash, summativ baholash, kriterial baholash, kommunikativ yondashuvga asoslangan baholash) keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa CEFR (Common European Framework of Reference) talablari asosida baholash bugungi kunda xalqaro standartga aylangan. Mazkur maqolada og'zaki nutqni baholashning nazariy asoslari, baholash mezonlari, test turlari, interaktiv baholash metodlari hamda amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan yondashuvlar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro imtihon tizimlari (IELTS Speaking, TOEFL Interview, Cambridge Oral Exams) misolida baholashning ilmiy-amaliy jihatlari yoritiladi.

Og'zaki nutqning mohiyati va uning kommunikativ kompetensiyadagi o'rni.

Og'zaki nutq - insonning fikr, his-tuyg'u va ma'lumotlarni og'zaki shaklda etkazish jarayonidir. U til o'rganishning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, kommunikativ kompetensiyaning markaziy qismidir. Nutqning samaradorligi nafaqat til birliklarini bilishga, balki ularni vaziyatga mos, mantiqiy, ravon va pragmatik jihatdan to'g'ri qo'llashga ham bog'liq. Hymes (1972), Canale & Swain (1980) kabi tadqiqotchilar kommunikativ kompetensiyani quyidagi komponentlarga ajratgan:

1. Grammatik kompetensiya — grammatik shakllardan to'g'ri foydalanish;
2. Sotsiolingvistik kompetensiya — nutqni vaziyatga moslash;
3. Diskursiv kompetensiya — nutqning ravonligi, mantiqiy davomiyligi;
4. Strategik kompetensiya — kommunikativ muammolarni hal qilish strategiyalari.

Og'zaki nutqni baholash jarayonida ushbu komponentlar kompleks holda o'lchanishi zarur.

Shuningdek, nutq hosil bo'lishi psixolingvistik jarayon bo'lib, unda diqqat, xotira, fikrlash, leksik faollashtirish va grammatik strukturalarni tanlash kabi bosqichlar ishtirok etadi. Og'zaki nutqni baholashda bu jarayonlarning har biri alohida namoyon bo'ladi, masalan: ravonlik - formulalash tezligiga, talaffuz - artikulyatsiya sifatiga, mazmun - kontseptualizatsiya bosqichiga bog'liq.

Til o'rganuvchilarning og'zaki nutqi bir nechta ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omillar - o'quvchining psixologik holati, motivatsiyasi, tilga bo'lgan qiziqishi, xotirasi, shaxsiy nutq strategiyalari; tashqi omillar esa ta'lim muhiti, o'qitish usullari, nutq amaliyotining mavjudligi, baholash tizimi va kommunikativ vazifalarning real hayotga yaqinligini ko'rsatadi. Shuningdek, og'zaki nutqning rivojlanishiga quyidagi omillar bevosita ta'sir qiladi:

1. Tilga oid omillar: leksik zahira, grammatik kompetensiya, fonetik tayyorgarlik.
2. Psixologik omillar: o'ziga ishonch, ijtimoiy xavotir, sahna qo'rquvi, emotsional barqarorlik.
3. Didaktik omillar: o'quv materialining sifati, mashqlar tizimi, o'qituvchi - talaba muloqoti, o'quv yuklamasining vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi.
4. Ijtimoiy omillar: guruhdagi muhit, axborot texnologiyalaridan foydalanish, real hayotdagi muloqot imkoniyatlari.

Til o'rganuvchilarda og'zaki nutqni samarali rivojlantirish uchun ushbu omillarning har biri o'qituvchi tomonidan hisobga olinishi muhimdir.

Baholash tushunchasi va uning turlari

Baholash - o'quvchining o'quv natijalarini o'lchash, tahlil qilish va talqin etish jarayonidir. Lingvodidaktikada baholash quyidagi ikki asosiy shaklga bo'linadi:

1. **Formativ baholash:** Bu - o'qitish jarayoni davomida olib boriladigan, o'quvchining rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan baholash. Misol: kichik suhbatlar, muloqot vazifalari va o'qituvchining fikr-mulohazalarini o'z ichiga oladi. Formativ baholashning maqsadi - jarayonni yaxshilash va o'quvchini rag'batlantirish.
2. **Summativ baholash:** Bu - kurs yoki mavzu yakunida o'quvchining umumiy kompetensiyasini o'lchash. Misol: yakuniy imtihon, standartlashtirilgan testlar (IELTS, TOEFL va boshqalar). Summativ baholashning maqsadi - aniq darajani belgilash.

Zamonaviy yondashuvlarda ikkala baholash turi o'zaro uyg'un holda qo'llaniladi. Chunki formativ baholash ta'lim jarayoniga ta'sir etsa, summativ baholash o'quvchining umumiy tayyorgarligini aks ettiradi.

CEFR asosida og'zaki nutqni baholash mezonlari.

Evropa Til Kompetensiyasi Reyestri (CEFR) bugungi kunda xalqaro miqyosda eng ko'p qo'llaniladigan baholash standarti hisoblanadi. CEFRda og'zaki nutqni baholash quyidagi mezonlarga tayangan holda amalga oshiriladi:

1. Ravonlik (Fluency).O'quvchining nutqi uzluksiz, tabiiy va oson kechishi. Pauzalar, keraksiz takrorlar, "hmm", "uh" kabi fillerlarning ko'pligi ravonlikka salbiy ta'sir qiladi.

2. Leksik boylik (Lexical Resource).O'quvchining so'z boyligi, sinonimlardan foydalanish darajasi, mavzuga mos birliklarni tanlay olish qobiliyati.

3. Grammatik aniqlik (Grammatical Range and Accuracy).Turli grammatik strukturalarni to'g'ri qo'llash, gaplarning murakkabligi va xatolarning muloqotga qay darajada ta'siri qilishi inobatga olinadi.

4. Talaffuz (Pronunciation).Tovushlarning to'g'ri chiqarilishi, urg'u, intonatsiya va ritmga e'tibor qaratadi.Talaffuzdagi xatoliklar muloqot tushunarligini kamaytirishi mumkin.

5. Interaktiv muloqot (Interactive Communication).Suhbat davomida savol berish, javob qaytarish, muloqotni davom ettirish, fikr almashishda faol bo'lish muhim hisoblanadi.

Har bir mezon bo'yicha baholash 0 dan 5 gacha yoki CEFR darajalariga mos ravishda olib boriladi.(A1–C2).

Kommunikativ yondashuv asosida og'zaki nutqni baholash.

Zamonaviy til o'qitishda kommunikativ yondashuv asosiy metod sifatida qabul qilingan bo'lib, unda o'quvchining real muloqotga kirisha olish qobiliyati baholanadi. Bu yondashuvda baholash jarayoni faqat grammatik to'g'rilikni aniqlashga emas, balki mazmun, nutq mantiqi, interaktivlik va pragmatik moslikka e'tibor qaratadi.Bu yondashuv ayniqsa IELTS, Cambridge va Oxford imtihon tizimlarida samarali qo'llaniladi.

Og'zaki nutqni baholash uchun test turlari.

Og'zaki nutqni baholashda ko'plab testlardan foydalaniladi. Quyidagilar eng ko'p uchraydigan test formatlari :

1) Intervyu testi:Bu - o'quvchi va baholovchi o'rtasidagi muloqot orqali baholash usuli. U quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:Qisqa tanishuv,kundalik mavzuda savol-javob,mavzu bo'yicha batafsil izoh,ikr bildirish, munozaralarni o'z ichiga olishi mumkin.

2) Juftlik/multi-intervyu (pair work / group interview):Bu format CEFR va Cambridge imtihonlarida keng qo'llanadi.Ikki yoki uch o'quvchi birgalikda vazifani bajaradi. Masalan:

- biror muammoni hal qilish (decision-making task)
- rasm asosida suhbat qiladi
- roldan-ro'lga kirish (role-play)

3) Rol o'ynash (Role-play) testi: Rol o'ynash testi yuqori darajadagi pragmatik kompetensiyani baholashga yordam beradi.O'quvchi berilgan vaziyat bo'yicha rolga kirib, suhbatni olib boradi. Masalan:

- Restoranda ovqat buyurtma berish
- Shikoyat qilish
- Yo'nalish so'rash
- Sotuvchi va xaridor roli

4) Tasvir asosida gapirtirish (Picture description / storytelling): O'quvchiga bir yoki bir nechta rasm beriladi va u: rasmni tasvirlaydi, personajlar haqida taxmin qiladi, voqeani hikoya qiladi. Bu test o'quvchining ravonligi, grammatik strukturalar va leksik boylikni baholash uchun juda samarali.

5) Taqdimot (oral presentation) testi: O'quvchi ma'lum mavzuda 3–5 daqiqalik nutq tayyorlaydi. Bu test yuqori darajadagi (B2-C1) o'quvchilar uchun mos. Baholash mezonlari: nutq tuzilmasi, argumentlar mantiqiylik, auditoriya bilan muloqot, tilning tozaligi va boyligi.

6) Debat yoki munozara testi: Bu test kritik fikrlash, diskursiv nutq, qonuniy dalillardan foydalanish kompetensiyalarini baholaydi. O'quvchi berilgan mavzu bo'yicha bahsga kirishadi. Masalan:

- “Mobil telefonlar maktabda taqiqlanishi kerakmi?”
- “Online ta'lim an'anaviy ta'limdan ustunmi?”

7) ERP (Extended Response Performance) testi: Bu tur ko'proq akademik baholashda qo'llaniladi. Bu bir necha mavzularni qamrab oluvchi kengaytirilgan og'zaki ijodiy javob testi hisoblanadi. O'quvchi 10–15 daqiqa davomida bir mavzuni chuqur tahlil qiladi.

mezon	5ballik tavsif	1-2 ballik tavsif
ravonlik	tabiiy va nutq to'xtashlarisiz	ko'p pauzalar va fikrni davom ettira olmaslik
leksik boylik	mavzuga mos xilma-xil so'zlar	so'z tanlovi cheklanganligi
grammatik aniqlik	murakkab gaplardan to'g'ri foydalana olish	xatolarning ko'pligi va muloqotga ta'siri
talaffuz	aniqliligi yuqori darajada va intonatsiyalardan to'g'ri foydalanganligi	so'zlarning deyarli yarmi noto'g'ri talaffuz qilinishi
interaktivlik	muloqotni boshqara olish va savollar berish	suhbatni boshqara olmaslik, davom ettirilmamaslik.

Xulosa qilib aytganda, og'zaki nutqni baholash til o'qitish metodikasining eng muhim va murakkab yo'nalishlaridan biridir. Baholash jarayoni nafaqat o'quvchining til kompetensiyasini aniqlash, balki ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'qitish strategiyalarini to'g'ri yo'naltirish, o'quvchining o'sish dinamikasini belgilash imkonini beradi. Ushbu maqolada og'zaki nutqni baholashning nazariy asoslari, mezonlari, test turlari, xalqaro standartlari, shuningdek, amaliy metodlar chuqur tahlil qilindi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, samarali baholash uchun quyidagi tamoyillar zarur:

1. Aniqlik va ishonchlilik — testlar ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.
2. Kommunikativ yondashuv — baholash real hayotga yaqin bo'lishi kerak.
3. Analitik rubrikalar — baholash mezonlari ochiq, aniq va standart bo'lishi shart.
4. O'quvchi faoliyatiga integratsiya — speaking doimiy ravishda mashq qilinishi lozim.
5. Texnologik yondashuvlar — onlayn platformalar baholashni qulaylashtiradi.

Yuqoridagi ilmiy asoslar va metodlar o'qituvchilarga o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini aniq, xolisona va samarali baholash imkonini beradi. Natijada til o'rganish jarayoni yanada mazmunli, sifatli va natijaga yo'naltirilgan bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Brown, H. D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. Pearson Education, 2010.
2. Hughes, A. Testing for Language Teachers. Cambridge University Press, 2003.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. 2001.
4. Hymes, D. Communicative Competence. University of Pennsylvania Press, 1972.
5. Canale, M., & Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches. Oxford University Press, 1980.
6. Fulcher, G., & Davidson, F. Language Testing and Assessment. Routledge, 2007.
7. Luoma, S. Assessing Speaking. Cambridge University Press, 2004.
8. McNamara, T. Language Testing. Oxford University Press, 2000.
9. Weir, C. J. Language Testing and Validation: An Evidence-Based Approach. Palgrave Macmillan, 2005.
10. IELTS Examiner Manual, 2023.